ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Nuriddin Raxmonov

Farg‘ona davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyot kafedrasi dotsenti v.b.

XON IJODIDA MAJNUN OBRAZI

Abstract: Mazkur ilmiy maqolada Muhammad Alixon ijodida Majnun obrazining tutgan o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xon ijodining Navoiy va Fuzuliy asarlariga yaqinligi, an’analar va ijodiy maktab ta’siri, shoirning ishqiy she’riyatida tasvirlangan poetik obrazlar, badiiy uslub va ma’no qatlamlari chuqur o‘rganiladi.

Keywords: Muhammad Alixon, Majnun obrazi, Navoiy va Fuzuliy ijodi, ishqiy she’riyat, Sharq adabiyoti, poetika va badiiy tasvir, an’ana va novatorlik, o‘zbek mumtoz she’riyati

Kirish

Ishq va muhabbat hamisha badiiy adabiyotning bosh mavzusi bo'lib kelgan. Farhod va Shirin, Tohir va Zuhra kabi mashhur muhabbat qissalari bu mavzuning namunalaridir. Layli va Majnun dostoni alohida o'ringa ega. Ushbu doston Sharq adabiyotining eng mashhur ishqiy hikoyalaridan biri bo'lib, nafaqat Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining, balki boshqa ko'plab xalqlar adabiyotida ham keng tarqalgan.

Layli va Majnun hikoyasining kelib chiqishi qadim arablar hayotiga borib taqaladi. Ba'zi arab manbalarida, Majnun Shimoliy Arabistondagi Bani Omir qabilasiga mansub tarixiy shaxs sifatida keltirilgan (Mallayev, 2022). Uning ismi turli manbalarda turlicha tarzda keltirilgan. Majnun o'z qabilasidan Layli ismli bir qizni sevib qolgan va unga bag'ishlab ajoyib she'rlar yaratgan. Ularning she'rlari qabiladoshlari va boshqa qabilalar orasida keng tarqalganligi haqida arab manbalarida ma'lumotlar mavjud. Ba'zi tarixchilar esa Majnun tarixiy shaxs emas, balki majoziy bir nom sifatida qabul qilinadi. Ularning fikriga ko'ra, Majnun ismi o'z amakisining qizini sevgan bir yigitga tegishli bo'lib, u Layliga bo'lgan muhabbatini ifodalash uchun "Majnun" taxallusini qo'llagan. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, Layli tarixiy shaxsdir. Mashhur tojik shoiri va mutafakkiri Nosir Xusrav (XI asr) «Safarnoma» asarida Arabistonda ekan, Toif yaqinida kishilar unga Layli yashagan qo‘rg‘onnin xarobalarini ko‘rsatganlarini yozib qoldirgan.

Badiiy adabiyotda Layli va Majnun qissasi dastlab Nizomiy Ganjaviy tomonidan doston shaklida bitilgan. Keyinchalik, bu mavzuni Amir Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Fuzuliy kabi yirik shoirlar davom ettirgan. Alisher Navoiy ham o'zining turkiy tilida "Layli va Majnun" dostonini yozgan va bu doston turkiy adabiyotda birinchi bo'lib o'z o'rnini topgan. Jumladan Alisher Navoiy mazkur asarda Majnun haqida shunday yozadi:

Bu safhani aylagan nigorish

Afsona bu nav etar guzorish:

Kim qildi chu gardishi zamona,

Majnun so'zin el aro fasona.

El deb chu etishsa ul jigar xun:

Keldi Majnun-u, keldi Majnun (Navoiy, 1992).

Bu sadafini bezatuvchi o‘z afsonasini shunday bayon etadi: Zamona gardishi Majnun haqida so’zni el ichida afsonaga aylantirdi. Odamlar jigari xun ul bechorani ko‘rganda “Majnun keldi Majnun keldi”-derdilar.

Sunbulin Laylo ochiptur, yel abiroso emas,

Dog‘ini Majnun qonatmish, lolayi hamro emas (“G‘aroyib us-sig‘ar”, 228 g‘azal)

Taralayotgan xushbo‘y hidni shamol keltirayotgani yo‘q, balki Layli o‘z sunbul sochlarini yoygan, tog‘da ochilgan qizil lola emas, balki uni Majnunning qoni qizartirgan. Ushbu g‘azal mavzusiga ko‘ra oshiqona bo‘lsa-da, unda tabiat tasviri yor go‘zalligi va oshiq ruhiy holati ta’rifi bilan uyg‘unlashib ketgan, shu ma’noda u ko‘proq peyzaj yo‘nalishidagi she’rlarni eslatadi. G‘azal usluban ta’rif va tavsifning umumlashmasidan iborat: unda insoniy sifatlar ham, tabiat manzaralari ham, oshiqning iztirobli tuyg‘ulari bayoni ham birday ob’yekt bo‘lib xizmat qilgan (Yusupova, 2022).

G‘azalning o‘ziga xosligi va Navoiy dahosining buyukligi shundaki, unda zohiriy va botiniy ma’nolar, ya’ni majoziy ishq va ilohiy ishq tasviri bir-biriga qarama qarshi qo‘yilmaydi, aksincha har ikki ma’no bir- birini to‘ldirib, uyg‘unlashib ketadi. Boshqacha qilib aytganda, bir g‘azalning o‘zida majoziy ishq tasviridan ilohiy ishq tasviriga yoki aksincha holatga o‘tiladi, kitobxon goh bu ma’nodan, goh u ma’nodan, goh har ikkisidan zavqlana oladi (Komilov, 2004).

Baytda mumtoz adabiyotdagi an’anaviy oshiq-ma’shuq obrazlari lirik qahramon va uning sevgilisi timsolini ifodalab keladi, unga ko‘ra bahor faslida havoning gullar vositasida xushbo‘y hid taratishi tabiat hodisasi bo‘lmay, balki Laylining sunbuldek sochidan taralgan ifordandir. Tog‘ bag‘ridagi qizillik ham Layli ishqida ko‘ksi yara bo‘lgan Majnunning qonidan, lolalarning qip-qizil bo‘lib ochilib yotishidan emas.

Shu jihatdan badiy asarda obraz, aslida, bir ma’no yoki maqsadga yo‘naltiriladi, mohiyatan esa ko‘p qirra bo‘lib, hatto buni asar muallifi ham chegaralay olmaydi. Masalan, “gul” so‘zidan gul obrazining farqi shundaki, badiiy asarda u o‘simlikni ham, ma’shuqani ham, qalb yoki ham, o‘quvchi dunyoqarashi va didiga qarab yana boshqa ma’nolarni ham anglatishi mumkin (Erkinov, 2022).

MUHAMMAD ALIXON IJODI VA MAJNUN OBRAZI

Muhammad Alixon Qo‘qon xoni va shoir sifatida “Xon” (ba’zi manbalarda “Xoni G‘oziy”) taxallusi bilan ijod qilgan mashhur shaxsdir. Uning ijodi Qo‘qon adabiy muhitining muhim qismi bo‘lib, Amir Umarxon va Nodira singari adabiyot ahli bo‘lgan oilada tarbiya topgan. Muhammad Alixon ijodida Majnun obrazi alohida o‘rin tutadi (Xon she’rlarida 50 dan ortiq o‘rinda Majnun bilan bog‘langan baytlar mavjud).

Majnun obrazining Alisher Navoiy va Fuzuliy ijodidagi gavdalanishi bir-biriga o‘xshash bo‘lsa-da, ularning tasvirida ayrim farqlar mavjud. Fuzuliyda Majnunning sevgi orqali azoblanishi, uning psixologik va falsafiy jihatlari alohida ta’kidlangan bo‘lsa, Navoiyda bu obraz tasavvufiy nuqtai nazardan yoritiladi. Navoiyda Majnun obrazi ilohiy ishqni anglash jarayonining ramzi sifatida tasvirlanadi:

Ey har sorikim, qilib tajalli,

Ul mazhar o‘lub jahonda Layli.

Ey oniki Layli aylab otin,

Majnun qilmoq qilib sifotin (Navoiy, 1992).

Navoiy asarlarida tasavvufga oid talqinlar bilan birga inson qalbini larzaga soluvchi fojiaviy ishq qismati, ijtimoiy adolatsizlik tasviri hayotiy va samimiy tarzda aks ettirilgan. Uning “Layli va Majnun” dostoni tasavvufiy adabiyotning eng go‘zal namunalaridan biridir.

Yozmoqda bu ishqi jovidona,

Maqsudim emas edi fasona.

Mazmuniga bo‘ldi ruh mayli,

Afsona edi aning tufayli.

Lekin chu raqamga keldi mazmun,

Afsona anga libosi mavzun (Yahyo, 2022).

Ya’ni bu barhayot ishq haqida yozishdan maqsadim qandaydir afsona aytish emas. Balki ruh uning mazmuniga, yashirin ma’nolariga mayl qildi. Ammo aytilgan afsona ushbu ma’noni anglatish uchun bir sabab, vosita edi. Mazmun ushbu bitiklarning o‘zida, afsona unga bir xushbichim libos, xolos.

Muhammad Alixon ijodida Navoiy va Fuzuliy ta’siri sezilarli darajada namoyon bo‘ladi. Xonning “Layli va Majnun” dostoni (bizgacha yetib kelmagan) borligi aytiladi. Majnun obrazi esa Navoiy va Fuzuliy asarlariga uyg‘un bo‘lib, ishqiy she’riyatdagi ramzlar va timsollar o‘xshashligini ko‘rsatadi (Ochilov, 2022). Bu holat Muhammad Alixonning adabiy maktab va an’analar davomchisi ekanligini tasdiqlaydi.

Xon ijodida Majnun obrazi an’anaviy shaklda ifodalangan bo‘lsa-da, yangicha talqinlar ham uchraydi. Majnun obrazining tashqi va ichki tavsifi Muhammad Alixon she’riyatida yangicha ma’no kasb etgan. Shoir Majnunning ishqiy iztiroblarini o‘zida davom ettiruvchi sifatida ko‘radi.

“Adabiyot − so‘z san’ati. Shoir − san’atkor. San’at va san’atkordan, avvalo, nima talab qilinadi? Obrazli tasvir mahorati. Poetik tasvirda o‘ziga xoslik va yangilikka erishilmasa, she’rxonning ko‘ngliga yo‘l ochish, fikr-tuyg‘ularini yangilash quruq da’voligicha qolaveradi. So‘z va tasvir go‘zalligining birinchi sharti ruhni zavqlantirish, ma’no va mohiyatni ruhoniy idrok ob’yektiga aylantira borishdir” (Qobilova, 2021).

ISHQIY IZTIROBLAR VA FIDOYILIK TASVIRI

Xon g‘azalida:

Mo‘yi jo‘lidam-la masrur o‘ldig‘im ayb aylamang,

O‘tdi Majnun, qoldi andin shimdi bu nisbat banga (O‘zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi, 1808).

Baytda shoirning “Mo‘yi jo‘lidam-la masrur o‘ldig‘im ayb aylamang” misrasida “aftodahol, to‘zg‘igan sochim bilan xursand bo‘lib yurganimni ayb sanamanglar”- deydi chunki, “O‘tdi Majnun, qoldi andin shimdi bu nisbat banga”, Majnun allaqachon o‘tib ketgan bo‘lsa-da, ilohiy ishq yangi majnunlarni paydo qilaveradi. uning ishqi va iztiroblari eslanganda shoirga nisbat berilishi aytiladi. Ishq cheksiz bo‘lib, har avlodda yangi "Majnun"larni yaratadi. Majnun haqiqiy oshiqlarni timsoli bo‘lib keladigan bo‘lsa, bu bayt orqali Xon ilohiy ishq to qiyomatga qadar bor ekan yangi-yangi majnunlar avlodi paydo bolaveradi. Misol uchun Muhammad Alixon yashagan davrda haqiqiy ishq sohibi sifatida o‘zini ko‘rsatadi. Bu davomiylik va o‘lmaslik fikrini ta’kidlaydi.

ISHQNING BOG‘LIQLIK VA OZODLIKDAGI ROLI

Chu ul mushkin Salosil mehridin kesmaz jafo birla,

Anga, ey ishq, Majnun ko‘nglumi anjaq giriftor et (O‘zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi, 1808).

Birinchi satrda o‘zining ishq zanjirlarida tutqun ekanligini va bu tutqunlikni hatto jafo (mashaqqat, azob) ham uzolmasligini ta’kidlaydi. Ikkinchi misrada esa Ishq (Ollohga) iltijo qilib: “Ey Ishq, Majnun qalbini o‘sha zanjirlarda (“Mushkin Salosil” yorning hushbo‘y sochlari) abadiy tutib qo‘y.”- deydi, Bu misrada shoir ishqni inson qalbining egasi sifatida talqin qiladi. Ishqning ta’sirida bo‘lish shoir uchun yuksak baxt va ilohiy holatdir. Tasavvufda ishq ko‘pincha ilohiy haqiqatning jilvasi sifatida talqin qilinadi. "Mushkin salosil" iborasi insonni Allohga bog‘laydigan ilohiy zanjir sifatida talqin etiladi. Shoir bu baytda o‘z qalbini Majnun qalbiga o‘xshatib, uni ilohiy ishqning zanjirida ushlab turishni so‘raydi. Bu shoirning Allohga bo‘lgan intilishining chuqur ifodasidir. Shoir Majnun qalbining ishq zanjirlarida ushlanishini so‘rash orqali inson qalbini ilohiy haqiqatga “anjaq giriftor et." mahkum qilishni tilaydi. Bu holat qalbni dunyoviy bog‘lanishlardan xoli qilib, Allohga qaratishdir.

MAJNUNNING SHOHLIK QIYOFASI

Xon boshimda mo‘yi jo‘lidam erur nisobi joh,

Chatri shohitak o‘la Majnuni beparvoya soch (O‘zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi, 1808).

Shoir yorning sochini shohlik tojiga qiyoslab, Majnun telbaligi va ishqiy iztiroblarini yuksaklik va shon-sharaf timsoli sifatida tasvirlaydi. Bu yerda Majnun shunchaki telba emas, balki ishq va fidoyilik shohligi ramzi sifatida ko‘rsatiladi. Ishqiy she’riyatdagi yuz, ko‘z, qosh, kiprik, soch, zulf, lab, xol, og‘iz, zanaxdon, qad, bel kabi obrazlar ham tasavvuf she’riyatida so‘fiyona mazmunda keladi (Ochilov, 2022).

"Mo‘yi jo‘lidam erur nisobi joh" iborasi dunyo mulkidan voz kechish va faqat ruhiy izlanishga, Allohga bo‘lgan ishqqa yo‘naltirilgan hayotni ifodalaydi. Shoir, tasavvufda, Allohni sevishga, uning yo‘lida bo‘lishga, dunyo ishlaridan qochishga chaqiradi. Soch, tashqi dunyoga bo‘lgan aloqaning belgisi sifatida, tasavvufda uning beparvoligini va jismoniy dunyo bilan aloqaning uzilganligini anglatadi. Shoir o'zini, o'zining ichki dunyosida Allohga yetishishga intilayotgan shaxs sifatida ko‘rsatadi.

"Chatri shohitak o‘la Majnuni beparvoya soch"dagi Majnun obrazida tasavvufda Allohga bo‘lgan mukammal ishq va unga to‘liq berilishning ramzi ko‘rinadi. Majnun, tasavvufda, faqat Allohning ishqi bilan yashovchi insonni anglatadi, u dunyo va uning narsalarini unutgan va faqat

o‘zining ichki ishqiy holati bilan yashashga intiladi. "Sochning beparvo bo‘lishi" esa, uning tashqi dunyo bilan aloqalarining butunlay uzilganligini, ma'naviy jihatdan yuqori holatga erishganligini bildiradi.

Xoni yoring dog‘i savdosidadur xoligakim,

Soldi Majnundek balo vodiysida ovozalar (O‘zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi, 1808).

"Xoni yoring dog‘i" – Yorning qalbidagi dog‘ (g‘am, ishq alomati) shoir qalbining savdosiga sabab bo‘lgan. Bu yorning husniga va ilohiy go‘zalligiga oshiq bo‘lgan qalbning o‘zini tamomila ishqi iztirobga bag‘ishlashidir. "Xoligakim" – Yorning yuzi yoki husnida ko‘rinadigan xol, odatda, ishqiy tasvirlarda yorning go‘zalligini ta’riflash uchun ishlatiladi. Bu tasavvufda ilohiy go‘zallikning jilvasi deb talqin qilinadi. "Majnundek balo vodiysi" – Majnunning balo vodiysida ovoza qilinishi oshiqning yor yo‘lida chekadigan azob-uqubatlari va mashaqqatlarini anglatadi. Bu iztiroblar tasavvufda ruhiy tozalash va ilohiy haqiqatga yetish yo‘li sifatida qabul qilinadi.

Xulosa

Muhammad Alixon ijodida Majnun obrazi an’anaviy ishqiy qahramon sifatida tasvirlanib, unga yangicha talqin va badiiy qirralar singdirilgan. Shoir asarlarida Majnun faqat ishqiy iztiroblarning timsoli emas, balki inson qalbidagi murakkab kechinmalarni, chuqur ma’naviy izlanishlarni va ilohiy ishq orqali o‘zlikni anglashni ifoda etuvchi ramz sifatida gavdalanadi. Xon baytlarida Majnun obrazi an’anaviy ramzlar bilan birga inson ruhiyatining yangi qirralarini ochib beradi. Xon Majnunni ishqiy azoblar va ilohiy ishqqa yetishishning universal timsoli sifatida qayta talqin qiladi. Shoirning novatorligi Majnun obrazining ishqiy iztiroblari bilan turli rakurslarda namoyon bo‘lishi. Bu yondashuv Xon ijodining mumtoz she’riyatdagi o‘rni va ahamiyatini belgilaydi (Rahmonov, 2024).

References

Erkinov, A. (2022). *Alisher Navoiy ijodiga oid tadqiqotlar* (30 jildlik, 19-jild). Tamaddun.

Komilov, N. (2004). *Navoiy va uning adabiy merosi: Navoiy dahosining buyukligi*. Fan.

Mallayev, N. (2022). *So‘z san’atining gultoji: Layli va Majnun* (30 jildlik, 3-jild). Tamaddun.

Navoiy, A. (1992). *Layli va Majnun*. In *Mukammal asarlar to‘plami* (20 jildlik, 9-jild). Fan.

Ochilov, E. (2022). *Turkiy adabiyot durdonalari: Muhammad Fuzuliy* (58-jild). O‘zbekiston.

Ochilov, E. (2022). *Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi: Bir hovuch dur* (30 jildlik, 23-jild). Tamaddun.

O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondi. (n.d.). *Ash‘ori Fuzuliy va Xon* (Qo‘lyozma № 157).

O‘zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi. (1808). *Devoni Xon* (Qo‘lyozma № 1808).

Qobilova, Z. B. (2021). *Adabiy an'ana va vorisiylik (Amiriy misolida)* [Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati]. Toshkent.

Rahmonov, N. (2024). Xon lirikasida badiiy tasvirning o'ziga xosligi. *Modern Educational System and Innovative Teaching Solutions, 8*(8), 108-112.

Yahyo, A. H. (2022). *Alishyer Navoiy – islomiy tasavvuf she'riyati namoyandasi* (30 jildlik, 3-jild). Tamaddun.

Yusupova, D. (2022). *Alisher Navoiy "Xamsa"sida mazmun va ritmning badiiy uyg'unligi, g'azallar sharhi* (30 jildlik, 27-jild). Tamaddun.

Izohlar

1. Mo'yi jo'lidam-la – Aftodahol, to'zg'igan sochim bilan
2. Shimdi – endi
3. Salosil - silsilaning ko'pligi
4. Anjaq - faqat
5. Jo'lida - to'zg'igan soch
6. Nisobi joh – martabaning darajasi
7. Chatri shohi – 1) shohi (ipak) qora parda, 2) chodir.